

HADISLARDA INSON OVOZINING TILOVATDAGI SIFATARI

Rahmatov Iqboljon Izzatullo o'gli

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Islomshunoslik va islom sevilizatsiyasini

o'rganish ICESCO kafedrasi” tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qur'on tilovatida inson ovoz sifati va ohangi haqida hadislarda uchraydigan fikrlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Qur'on, qiroat, ovoz, ohang, nay.

Baro ibn Ozib roziyallohu anhu rivoyat qiladi: Muhammad a.s: **“Qur'onni ovozlaringiz bilan ziynatlangiz”, -dedilar**”. Ibn Moja, Ahmad, Hokim, Ibn Xuzayma, Ibn Hibbon va Bayhaqiy rivoyati. Rivoyat sanadi sahih).

Ushbu rivoyatda Qur'on tilovatini ovoz sifalari bilan ziynatlash nazarda tutilgan. Bunda tilovat qiluvchi o'z ovozini imkon qadar chiroyli, ta'sirli, ma'nolarga qarab ovoz ranglarini ishlata bilishi nazarda tutiladi.¹

Baro ibn Ozib roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: **“Men Rasululloh a.sning:” “Qur'onni ovozingiz bilan go'zal qiling! Chunki, go'zal ovoz Qur'onning go'zalligini ziyoda qiladi”,- deganlarini eshitdim**”.(Dorimiy, Hokim va Bayhaqiy rivoyat qilgan, isnodini sahih).

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: لَيْسَ مِنْ مَنْ لَمْ يَتَعَنَّ بِالْقُرْآنِ.

رَوَاهُ الْبُخَارِيُّ وَأَبُو دَاوُدَ وَالدَّارِمِيُّ وَأَحْمَدُ وَالْبَيْهَقِيُّ وَالطَّبْرَانِيُّ

Abu Hurayra r.a dan rivoyat qilinadi: **“Qur'onni tag'anniy (tarannum) bilan tilovat qilmagan bizdan emas”**. Imom Buxoriy, Abu Dovud, Dorimiy, Ahmad, Bayhaqiy va Tabaroniy rivoyatlari.

¹ Koloratura, «rangin bezaklangan ma'nosida», dramatik va yengil toifalarga ajraladi. Birinchisini ma'lum darajada tovushi kuchli hamda bus-butun ovozlari o'zlashtirishi mumkin. Yengil sanalagan ikkinchisi esa lirik bo'lib, ayniqsa koloraturali soprano ovozlari xos. MUYASSAR RAZZOQOVA AKADĀMIK XONANDALIK ASOSLARIGA KIRISH «Musiq» nashriyoti Toshkent 2014

عَنْ الْبَرَاءِ بْنِ عَازِبٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: زَيَّنُوا الْقُرْآنَ بِأَصْوَاتِكُمْ. رَوَاهُ أَبُو دَاوُدَ وَالنَّسَائِيُّ وَالْدَّارِمِيُّ وَابْنُ مَاجَةَ وَأَحْمَدُ وَالْحَاكِمُ وَابْنُ خُرَيْمَةَ وَابْنُ حِبَّانَ وَالْبَيْهَقِيُّ وَسَنَدُهُ صَحِيحٌ.

Baro ibn Ozib r.adan rivoyat qilindi: “Rasululloh a.s: “**Qur’onni ovozlaringiz bilan ziynatlangiz**”,-dedilar”. *Imom Abu Dovud, Nasoiy, Dorimiy, Ibn Moja, Bayhaqiy va boshqalar rivoyat qilganlar, (sahih hadis).*

قَالَ: سَمِعْتُ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَقُولُ: حَسِّنُوا الْقُرْآنَ بِأَصْوَاتِكُمْ فَإِنَّ الصَّوْتِ الْحَسَنَ يَزِيدُ الْقُرْآنَ حُسْنًا. رَوَاهُ الدَّارِمِيُّ وَالْحَاكِمُ وَالْبَيْهَقِيُّ فِي شُعَبِ الْإِيمَانِ وَسَنَدُهُ صَحِيحٌ

Baro ibn Ozib r.adan rivoyat qilindi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning: “**Qur’onni ovozingiz bilan go’zal qiling! Chunki, go’zal ovoz Qur’onning go’zalligini ziyoda qiladi**”,- deganlarini eshitdim”. *Imom Dorimiy, Hokim, Bayhaqiy “Shuabul-iymon”da rivoyat qilganlar. (Rivoyat sanadi sahih).*

عَنْ أَنَسِ بْنِ مَالِكٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: إِنَّ لِكُلِّ شَيْءٍ حِلْيَةً وَحِلْيَةُ الْقُرْآنِ الصَّوْتُ الْحَسَنُ. رَوَاهُ عَبْدُ الرَّزَّاقِ فِي الْمُصَنَّفِ وَالضَّيَّاءُ الْمُقَدِّسِيُّ فِي الْأَحَادِيثِ الْمُخْتَارَةِ وَقَالَ: آخِرُ إِسْنَادِهِ صَحِيحٌ

Anas ibn Molik r.adan rivoyat qilindi: “**Har bir narsaning ziynati bo'ladi. Qur'onning ziynati chiroyli ovozdir**”. *(Abdurazzoq “Musannaf”da, Ziyo Maqdisiy “Al-ahadiysul-muxtaro”da rivoyat qilgan va: “Isnodning oxiri sahih”, degan).*

عَنْ ابْنِ أَبِي مُلَيْكَةَ قَالَ: سَمِعْتُ عُبَيْدَ اللَّهِ بْنَ أَبِي نَهْيِكٍ يَقُولُ: بَيْنَمَا أَنَا وَاقِفٌ وَعَبْدُ اللَّهِ بْنُ السَّائِبِ بْنُ أَبِي السَّائِبِ إِذْ مَرَّ بِنَا أَبُو لُبَابَةَ فَاتَّبَعْنَا حَتَّى دَخَلَ بَيْتَهُ فَاسْتَأْذَنَاهُ فَأَذِنَ لَنَا فَأَذَا رَثُّ الْمَتَاعِ رَثُّ الْحَالِ فَقَالَ: مَنْ أَنْتُمْ فَانْتَسَبْنَا لَهُ فَقَالَ: مَرْحَبًا وَأَهْلًا تَجَارَ كَسْبَةَ فَسَمِعْتُهُ يَقُولُ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: لَيْسَ مِنْنَا مَنْ لَمْ يَتَعَنَّ بِالْقُرْآنِ قَالَ ابْنُ أَبِي مُلَيْكَةَ: فَقُلْتُ: يَا مُحَمَّدَ أَرَأَيْتَ إِنْ لَمْ يَكُنْ حَسَنَ الصَّوْتِ قَالَ: يُحْسِنُهُ مَا اسْتَطَاعَ. رَوَاهُ الْبَيْهَقِيُّ فِي السُّنَنِ الْكُبْرَى وَالطَّبْرَانِيُّ فِي الْكَبِيرِ وَرَجَّاهُ ثِقَاتٌ.

Ibn Abu Mulaykadan rivoyat qilindi: “Men Ubaydulloh ibn Abu Nahiyk: “Men Abdulloh ibn Soib ibn Abu Soib bilan turar edim, oldimizdan Abu Luboba o'tibgan edi biz uning orqasidan yurib bordik. U uyiga kirdi. Abu Luboba bizning kirishimizga ham izn berdi. Qarasak, uning uyi xaroba edi, o'zi esa og'ir ahvolda

hayot kechirardi. U: “Sizlar kim sizlar?” deb so'radi. Biz unga nasabimizni aytdik. U: “Kasaba savdogarlari xush kelibsizlar!” dedi. Men uning: “Rasululloh a.s: “Qur'onni tag'anniy qilmagan bizdan emas!” deganlar”, deb aytganini eshitdim”, deganini bilaman”. Ibn Abu Mulayka aytadi: “Ey Muhammad, qara, agar kishida chiroyli ovoz bo'lmasa-chi, (u holda nima qiladi)” deb so'ragandim, u: “Qodir bo'lganicha chiroyli qiladi”, dedi” (Bayhaqiy “As-sunanul kubro”da va Tabaroniy “Kabiyr”da ishonchli roviylardan rivoyat qilgan).

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: مَا أَدْنَى اللَّهِ لَشَيْءٍ مَا أَدْنَى النَّبِيِّ أَنْ يَتَعَنَّى بِالْقُرْآنِ. رَوَاهُ الْبُخَارِيُّ وَمُسْلِمٌ وَأَبُو دَاوُدَ وَالنَّسَائِيُّ وَالْدَّارِمِيُّ وَأَحْمَدُ وَالْحَاكِمُ وَابْنُ حِبَّانَ وَالْبَيْهَقِيُّ وَالطَّبْرَانِيُّ وَفِي رِوَايَةٍ مُسْلِمٍ وَغَيْرِهِ قَالَ: مَا أَدْنَى اللَّهِ لَشَيْءٍ مَا أَدْنَى النَّبِيِّ حَسَنَ الصَّوْتِ يَتَعَنَّى بِالْقُرْآنِ يَجْهَرُ بِهِ.

Abu Hurayra r.a rivoyat qilinadi: **“Alloh Nabiyning Qur'onni tag'anniy bilan o'qiganiga quloq solganchalik boshqa narsaga quloq solmagan”** (Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Nasoiy, Dorimiy, Ahmad, Hokim, Ibn Hibbon, Bayhaqiy va Tabaroniy rivoyati).

Imom Muslim va hamda boshqa muhadislar rivoyatida: **“Alloh chiroyli ovozi payg'ambar Qur'onni tag'anniy bilan ovoz chiqarib o'qiganiga quloq solganchalik boshqa narsani eshitmagan”**, deyilgan).

عَنْ أَبِي مُوسَى رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ أَنَّهُ قَالَ لَهُ: يَا أَبَا مُوسَى لَقَدْ أُوتِيتَ مِزْمَارًا مِنْ مِزَامِيرِ آلِ دَاوُدَ. رَوَاهُ الْبُخَارِيُّ وَمُسْلِمٌ وَالتِّرْمِذِيُّ وَالنَّسَائِيُّ وَالْدَّارِمِيُّ وَابْنُ مَاجَةَ وَأَحْمَدُ وَالْبَيْهَقِيُّ وَالطَّبْرَانِيُّ

Abu Muso Ash'ariy r.a rivoyat qilinadi: **“Rosululloh a.s unga: “Ey Abu Muso, senga Dovud oilasining naylaridan biri berilgan ekan!”** deganlar. (Buxoriy, Muslim, Termiziy, Nasoiy, Dorimiy, Ibn Moja, Ahmad, Bayhaqiy va Tabaroniy rivoyati).

Ushbu rivoyatda “naylarian bir” va “Dovud oilasi” jumalari go'zal ovoz, ta'sirli – mungli ovozga ishora. Dovud a.sga tushirilgan Zaburni o'qiganida butun borliq uning yoqimli tilovatiga quloq tutgan deyiladi. Abu Muso Ash'ariy r.a Qur'onni chiroyli ovozda tilovat qilishi, Rosululloh a.s qiroatini eshitib, ovozini

Dovud a.s.nikiga o'xshatishi ham Qur'onni chiroyli ovozda, go'zal ohanglarda o'qish maqtalgan sifatligiga yaqqol alil bo'la oladi.

عَنْ أَبِي مُوسَى الْأَشْعَرِيِّ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ: اسْتَمَعَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قِرَاءَتِي مِنَ اللَّيْلِ فَلَمَّا أَصْبَحَتْ قَالَ: يَا أَبَا مُوسَى اسْتَمَعْتُ قِرَاءَتَكَ اللَّيْلَةَ لَقَدْ أُوتِيتَ مِرْمَارًا مِنْ مِرَامِيرِ آلِ دَاوُدَ قُلْتُ: يَا رَسُولَ اللَّهِ لَوْ عَلِمْتُ مَكَانَكَ لَحَبَّرْتُ لَكَ تَحْبِيرًا. رَوَاهُ الْحَاكِمُ وَابْنُ حِبَّانَ وَالْبَيْهَقِيُّ وَسَنَدُهُ صَحِيحٌ.

Abu Muso Ash'ariy r.adan rivoyat qilinadi. U zot aytadi: **“Rasululloh a.s tunda qiroatimni tinglagan ekanlar. Tong o'tgach u zot: “Ey Abu Muso, kecha tunda qiroatinga quloq tutdim. Senga Dovud oilasi naylaridan biri berilgan ekan”,- dedilar. Shunda men: “Ey Rasululloh, agar sizning borligingizni bilganimda sizni yana ham hayratga solgan bo'lar edim”,-dedim”.** (Hokim, Ibn Hibbon va Bayhaqiy rivoyat qilgan. Rivoyat sanadi sahih).

Boshqa bir rivoyatga ko'ra Oisha r.a ham Rasululloh a.s bilan birga tinglaganlar.

عَنْ أَبِي عُمَانَ النَّهْدِيِّ قَالَ: صَلَّيْتُ خَلْفَ أَبِي مُوسَى الْأَشْعَرِيِّ فَمَا سَمِعْتُ صَوْتِ صَنْجٍ وَلَا بَرْبِطٍ وَلَا نَائِي أَحْسَنَ مِنْ صَوْتِهِ. رَوَاهُ أَبُو نُعَيْمٍ فِي حَلِيَّةِ الْأَوْلِيَاءِ وَأَبُو عَوَانَةَ فِي الْمُسْتَخْرَجِ وَسَنَدُهُ صَحِيحٌ

Abu Usmon Nahdiydan rivoyat qilinadi: **“Men Abu Muso Ash'ariyning ortida namoz o'qir edim. Men uning ovozidan chiroyliroq sanjning ham, barbatning ham, nayning ham ovozini eshitmaganman”** (Abu Nuaym “Hilyatul-avliyo”da va Abu Avona “Mustaxraj”da rivoyat qilgan. Rivoyat sanadi sahih).

“Sanj” misdan yasalgan ushbu musiqa cholg'u sozi ikki qavatli doira shakliagi urma sozidir. “Barbat” soziga o'xshash musiqa asbobi.

Abu Usmon Nahdiy Abu Muso roziyallohu anhunging uyiga borib, uning ortida namoz o'qib, tilovatini eshitganida, chiroyli ovozidan juda ta'sirlangan va **uning ovozini musiqa asboblaridan ham chiroyliroq ekanini e'tirof etgan.**

Umar ibn Xattob roziyallohu anhu ham Abu Musoning ovozidan ta'sirlangan va qachon uni ko'rib qolsa, Qur'on o'qib berishini so'rardi. Bundan kelib chiqadiki, chiroyli ovoz bilan Qur'on o'qishning manfaati katta.

عن أبي هريرة أن رسول الله صلى الله عليه وسلم قال ما أذن الله لشيء ما أذن لنبي حسن الصوت يتغنى بالقرآن يجهر به * (صحيح) وأخرجه البخاري ومسلم

Abu Hurayra r.a dan rivoyat qilinadi: U zot aytdilar: “Alloh hech bir narsani Nabiyning Qur'onni tag'anniy bilan o'qiganini tinglaganchalik tinglamagan”.

(Buxoriy va Muslim rivoyati, muttafaqun alayh)

عن معاوية بن قررة قال : سمعت عبد الله بن مغفل يقول : قرأ رسول الله ؟ عام الفتح في سيره
سورة الفتح على راحلته فرجع فيها قال معاوية : لولا أنني أكره أن يجتمع الناس علينا لحكيت قراءته .
متفق عليه

Muoviya ibn Qurra rivoyat qiladi:”Men Abdulloh ibn Mag’falning shunday deganini eshitdim:”Rasululloh a.s fath yili ulov ustida ketayotganida Fath surasini ohang bilan tilovat qildilar”, Muoviya aytadi: Agar atrofimizga odamlar to‘planishini karih ko‘rmaganimda, u zot a.sning qiroatlarini o‘qib berar edim”.

Imom Tabariy Hazrat Umar ibn Xattob r.a haqida rivoyat qiladi: “Hazriti Umar Abu Muso Ash'ariyga: **“Bizlarga Robbimizni eslating”**, deganlarida Abu Muso Qur'onni ohang bilan tilovat qilar edi. Shunda Umar: **“Kim Qur'onni Abu Musoning ohangiga o'xshab ohang bilan o'qiy olsa, shunday qilsin”**, der edilar”.

Bu o‘rinda tilovat vaqtida tajvid ilmi, chiroyli ovoz, ohang va tarannum hamda tilovatda taqlid qilish ma’nolarini tushunishimiz mumkin.

Sahobalar orasida Abdulloh ibn Abbos r.a Alqama al - Asvadning tilovatini xush ko‘rar hamda Alqama u zotga Qur'onni tez-tez o'qib berar edi. Qachon qiroatni tugatsa, u zot unga: “Ota-onam sizga fido bo'lsin! Yana davom eting”, - der edi.

Muhammad Ali as-Sobuniy O'zlarining “Rovai ul-bayan” asarlarida har ikki mazhabning hukmlari va dalillarini keltirgandan so'ng xulosa o'rnida shunday deydilar: “Agar siz chuqurroq o'ylab ko'rsangiz, faqihlar orasidagi ixtilof asliy emas, balki shakliy ekanligini ko'rasiz. Binobarin, faqihlar Qur'onni tajvid qoidalariga xalal yetkazadigan ohanglar bilan o'qish harom ekanligiga ittifoq qilganlar. Buning misoli quyidagicha: maqsumni mad qilib o'qish, madni qasr qilish, tafximni tarqiq qilib o'qish, tarqiqni tafxim qilib o'qish, idg'om lozim bo'lgan o'rinlarda izhor o'qish yoki izhor lozim bo'lgan o'rinlarda ixfo qilish va hokazo. Qur'onning hukmlari va tilovat odoblariga e'tibor bermasdan o'zgalarni qo'ldirish va ovozning go'zalligini boshqalarga namoyon qilishni asosiy maqsad qilib olgan holda tilovat qilishga kelsak, bu ishning haromligi borasida hech kim

shubha qilmaydi.”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Abulaziz Mansur Qur'oni karim ma'nolari tarjimasi
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. «Tafsiri hilol»
3. Rahmatullah Kori Obidov. Qur'an And Tafsir Sciences.
4. Jahongir Ubaidullah. Study Guide On The Science Of Recitation And Tajwid
5. Odina Khan Muhammad Sadiq. Detailed Review. Hilol Publishing Tashkent 2022